e-mail: info@uzairways.com
tel: +998 (78) 140-46-23
fax: +998 (71) 236-75-00

www.uzairways.com

UZBEKISTAN AIRWAYS

Aksiyadorlik jamiyati | Joint-Stock Company

20 26 y. «22» 05 № 23-307/2

TASDIQLAYMAN
Boshqaruv Raisining
ishlab chiqarish bo'yicha
birinchi o'rinbosari v.v.b.
_____________ Khusanov U.A.
«22» may 2026-yil

**Texnik topshiriq**
**«Islom Karimov nomidagi Toshkent xalqaro aeroportida» favqulotda, qatnov kechiktirilishi va qatnov ko'chirilishi holatlarida «Uzbekistan Airways» AJ yo'lovchilarini joylashtirish uchun qo'shimcha (muqobil) mehmonxona va qo'shimcha xizmatlar ko'rsatish bo'yicha eng yaxshi taklifni tanlash tanloviga.**

| № | Asosiy ma'lumotlar va talablar ro'yxati | Tavsifi |
|---|---|---|
| 1. | Xizmat nomi | ««Islom Karimov nomidagi Toshkent xalqaro aeroportida» favqulotda, qatnov kechiktirilishi va qatnov ko'chirilishi holatlarida «Uzbekistan Airways» AJ yo'lovchilarini joylashtirish uchun mehmonxona va qo'shimcha xizmatlar ko'rsatish. |
| 2. | Xarid uchun asos | – YXTD ning 2026 yil uchun xaridlar rejasi.<br>– Ishlab chiqarish zarurati. |
| 3. | Xizmat ko'rsatish muddati | 2026–2027 yy., ko'rsatilgan xizmatlar sifati qoniqarli bo'lgan taqdirda uzaytirish (prolongatsiya) imkoniyati bilan. |
| 4. | Asosiy vazifa | – Mehmonxona xizmatlari va kuniga 3 mahal ovqatlanishni ta'minlash;<br>– Mehmonxona xonalari soni kamida 40 ta;<br>– Mehmonxona toifasi kamida 3 yulduz va undan yuqori, xostel turida bo'lmasligi;<br>– «Toshkent» xalqaro aeroportidan maksimal masofa — 10,0 km gacha. |
| 5. | Buyurtmachi | «Uzbekistan Airways» AJ. |
| 6. | Xarid usuli | Eng yaxshi taklifni tanlash. |
| 7. | Ijrochiga qo'yiladigan talablar | «Standart» va «yarim lyuks» (полулюкс) toifasidagi xonalar bir yoki ikki nafar mehmonni joylashtirish uchun mo'ljallangan bo'lishi kerak hamda alohida yotoqlar, kiyim-kechak shkafi, televizor, muzlatkich, telefon, konditsioner, elektr choynak, |

| | | |
|---|---|---|
| | | dush (issiq va sovuq suv bilan), hojatxona, choyshab va yotoq jihozlari (joylashtirilgan mehmonlar soniga mos ravishda), soz holatdagi mebel va inventar bilan jihozlangan boʻlishi lozim. Shuningdek, xonalar belgilangan shovqin izolyatsiyasi standartlariga javob berishi kerak. |
| 8. | Toʻlov shartlari, hisob-kitob tartibi va muddatlari | Ijrochi tomonidan koʻrsatilgan xizmatlar uchun toʻlov Buyurtmachi tomonidan oldindan toʻlovsiz, AJ «Uzbekistan Airways» mablagʻlari hisobidan, Oʻzbekiston Respublikasi milliy valyutasida Ijrochining bank hisob raqamiga pul mablagʻlarini toʻgʻridan-toʻgʻri oʻtkazish orqali naqd pulsiz shaklda amalga oshiriladi. Toʻlovlar uchun asos bajarilingan ishlar boʻyicha dalolatnoma va xisob-fakturalar xisoblanadi va toʻlovlar oʻrnatilingan tartib boʻyicha 10 (oʻn) bank ish kuni mobaynida amalga oshiriladi. |
| 9. | Xarid qilinadigan tovarlar, ishlar va xizmatlar hajmi | Har bir aniq holat boʻyicha belgilanadi. |
| 10. | Maxsus shartlar | **Bron qilish shartlari:**<br>– AJ «Uzbekistan Airways»ning «Toshkent» xalqaro aeroportidagi vakili tomonidan imzolangan kafolat xati asosida. Bron qilish uchun ariza, joylashtirish vaqtiga kamida 3 soat qolganda taqdim etiladi, bronni bekor qilish haqida xabarnoma esa taxminiy joylashtirish vaqtidan kamida 1 soat oldin yuboriladi.<br><br>**Joylashish va chiqish shartlari:**<br>• Kirish vaqti — soat 13:00 dan boshlab. Agar joylashish 08:00 dan 13:00 gacha boʻlgan vaqtda amalga oshirilsa, bir sutkalik xona narxining 50 % miqdorida toʻlov undiriladi; 08:00 gacha joylashishda esa bir sutkalik toʻliq narx undiriladi.<br>• Chiqish vaqti — soat 12:00 gacha. Agar chiqish 12:00 dan 18:00 gacha boʻlsa, belgilangan xona narxidan kelib chiqib soatbay toʻlov undiriladi; 18:00 dan 20:00 gacha boʻlsa, bir sutkalik narxning 50 % miqdorida toʻlov undiriladi; 20:00 dan keyin chiqishda esa bir sutkalik toʻliq narx undiriladi.<br><br>– Mehmonxona va aeroport oʻrtasida transport xizmati (shuttle-bus) mehmonxona narxlari qiymatida mavjud boʻlsa maʼqullanadi. |

**Ishlab chiqdi:**

YXTD YXB mutaxassisi G'offorov A.A. ____________

(lavozimi) (imzo)

**Kelishildi:**

Yerdagi xizmatlarni tashkil etish Departamenti

Direktori Rakhimov A.A. ____________

(lavozimi) (imzo)

ДОКУМЕНТ ПОДПИСАН ЭЛЕКТРОННОЙ ПОДПИСЬЮ

Подписал **Kulik Oksana**

Идентификатор пользователя 1980